



XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA KASBIY METODIK

TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

ChDPU, Boshlang'ich ta'limgan nazariyasi va amaliyoti kafedrasini o'qituvchisi

Raximova Nuquljon Yusupovna,

Boshlang'ich ta'limgan fakulteti 4-bosqich talabasi

Gulmirzayeva Shaxloxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limgan xalqaro baholash dasturlarining o'rni va zarurati, ta'limgan sifatini oshirishda o'qituvchi mahorati va o'qish savodxonligiga qo'yiladigan talablar mavzusi yoritib boriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, kasbiy mahorat, real vaziyat, nostandard vaziyat, o'qish savodxonligi, PISA, PIRLS, TALIS mantiqiy fikrlash, kritik yoki tanqidiy fikrlash, axborot matn.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantirish borasida Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiya[3]si doirasida boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetentsiyalarini rivojlantirishga alohida urg'u bergen holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'limgan dasturlari va yangi davlat ta'limgan standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'limgan sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, PISA, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shu asosda o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (PISA), boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (PIRLS), o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (PISA), rahbar va pedagog kadrlarning umumiyligi o'rta ta'limgan muassasalarida o'qitish va ta'limgan berish muhitini hamda ularning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha xalqaro baholash (TALIS) dasturlarida ishtirok etishga kirishildi. Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limgan tizimini yanada takomillashtirishda xalqaro baholash



dasturlarining o'rni beqiyosdir va bu borada PIRLS xalqaro baholash dasturini yaqqol misol sifatida olishimiz mumkin. Bizga sir emaski bu dastur 4-sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish darajasini baholaydi. Mamlakatimiz yoshlari xususan boshlang'ich sinflarda o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilar bilan alohida ishlash va ulardagi yashirin qobiliyatlarni ochish, ularni kreativ fikrlashga mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishimiz lozim. Buning uchun esa biz rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatlasha oladigan yosh o'quvchilarni tayyorlashimiz kerak.

Mamlakatimiz hozirda o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yemoqda va bu yo'lda barcha sohalarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan, xususan boshlang'ich ta'lim sohasini ham . Kundan kunga ushbu soha ham yangicha tus olyapti bu esa yosh va barkamol avlodni har tomonlama yuksalishi uchun qulaylik va imkoniyatlar eshigini ochmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina ta'lim sohasini isloh qilish orqali biz tasavvur ham qilolmaydigan muammolar o'z yechimini topadi. Chunki rivojlangan mamlakatlar ham avvalo ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratgan. Kelajagimiz yoshlari mustaqil va yetuk shaxs bo'lib yetishishlari uchun imkoniyat yaratilmas ekan biz rivojlangan davlatlar qatorida bo'la olmaymiz . Eng avvalo bolalarning ilk poydevori maktabgacha ta'limda berilsa, asosiy tamal toshini boshlang'ich ta'lim qo'yadi. Ya'ni bolalarning jamiyat uchun mos yetuk shaxs bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Shu o'rinda hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilarining qanchalik kelajakka tayyorlayotganimiz haqida so'z yuritsak. Albatta bola yetti yoshidan boshlab

"PIRLS - ingliz tilidagi "Progress in international reading and literacy study" so'zlaridan olingan bo'lib, o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur dastur IEA tomonidan har besh yilda bir marotaba amalga oshirilib, unda PISAdan farqli ravishda boshlang'ich ta'limdagi 4-sinf o'quvchilarining badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholanadi. Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiy e'tibor 4-sinf o'quvchilariga qaratiladi, buning



boisi odatda, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi.

Globallashuv va axborotlar ko'لامи nihoyatda kengayib borayotgan hozirgi davrda axborot bosimining kuchliligi har birimizdan mazkur axborotlardan himoyalanishni, ularni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmasdan, tanqidiy va kreativ yondashuv asosida ko'rib chiqishni va mantiqiy fikrlash orqali muhim va foydali bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishni talab etadi. Bu esa mantiqiy fikrlash jarayonida kechadi. Mantiq – nafaqat fikrlash qobiliyati, balki izchil va to'g'ri mulohaza yuritish hamdir. Ya'ni insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida tartibli, aniq, asosli ya'ni mantiqiy o'ylay olishi tushuniladi. Inson tafakkuri mantiq qonunlaridan qat'iy nazar o'zi mantiqiy qonunlarga bo'ysungan ravishda mavjud bo'ladi. Ko'pchilik imlo qoidalarini bilmagan holda to'g'ri gapirganlari kabi mantiq qonunlarini bilmay ham to'g'ri fikrlaydilar. Lekin bundan mantiqning amaliy ahamiyati yo'q degan xulosa kelib chiqmaydi.

Fikrlash – shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o'zida mujassamlashtiradi. Fikrlash insonga haqiqat hodisalari o'rtasidagi aloqalarni topish imkonini beradi, lekin aniqlangan bog'liqlik haqiqatdan vaziyatning to'liq holatini aks ettirishi uchun u ob'ektiv, to'g'ri yoki boshqacha aytganda, mantiqqa tayangan, mantiq qonunlariga mos bo'lishi kerak. Mantiqiy fikrlash – fikrlashning oliy pog'onalaridan biri bo'lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog'lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o'zida aks ettiradi. Demak, mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglab olingan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatadi.

Mantiqiy fikrlash harakat bilan chambarchas bog'liq. U orqali inson haqiqatni anglaydi, unga amal qiladi, dunyonni tushunadi, uni o'zgartiradi. Harakat fikrlashning asosiy shaklidir.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya sohasini maxsus taylorlangan, kasbiy kompetentlikka ega, ta'lim-tarbiya jarayonida psixologik bilim, malaka,



ko'nikmalarni natijadorlik tamoyillari asosida qo'llaniladigan pedagogsiz tasavvur etib bo'maydi

"Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Inglizcha "competence" tushunchasi lug'avniy jihatdan bevosita "qobiliyat' ma'nosini ifodalaydi, mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbny malaka, mahorat va iqtidorni namayon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rGANISHNI, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Ma'lumki, kishi bilayotgan va o'zlashtirayotgan narsaga tanqidiy munosabatda bo'lmasa, bilish faoliyatida tafakkurning mustaqiligi bo'lmaydi. O'zbekiston uchun mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Shu sababli maktab akademik litsey, kasb-hunar kollej va texnikumlar, oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning bilish faolyatini faollashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash



qobilyatlarini takomilashtirish kerak. Biroq tanqidiy fikrlash o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Foydali axborot va fikrlarni olish bo‘yicha tajriba, malaka ko‘nikmalar hosil qilishlari kerak. Tanqidiy fikrlash - o‘qish predmeti emas, balki o‘qitish natijasidir. Bu g‘oyalarni va ularning ahamiyatini ham ko‘p fikrlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish hamda ularni boshqa g’oyalar bilan taqqoslashdir. Tanqidiy fikrlashning da’vat bosqichining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlarni mustaqil tanlangan maqsad uchun ishlatish o‘quvchi talabada kuchli bo‘ladi. Ifodali fikrlashning ikkinchi bosqichini anglashda esa yangi axborot da’vat bosqichida faollashtirilgan axborot bilan bog’lanadi. Yangi o‘quv materiallarining tushunilishiga erishish bu bosqichning muhim vazifasi hisoblanadi. Biz o‘quvchilarimizni har tomonlama yetuk shaxs tayyorlamoqchi bo’lsak , chuqur bilimli va malakali yetuk kadrlarni tayyorlashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari tarbiyachi o‘qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) –T.: Iste’dod, 2010-y.
3. Yo‘ldoshev J.G., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. “Interfaol ta’lim sifat kafolati” (Bolaga do‘stona munosabatdagi ta’lim). – T.: 2008-y.
4. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. –G‘afur G‘ulom: Toshkent, 2004. 5-16, 111-211 b
5. Ломиворотов М.М. Логика для юристов. Учебное пособие в схемах и упражнениях. –Волгоград.: ВолГГТУ, 2006. 11-24 с 3. Oblomurodov, N. (2022). Yangi O‘zbekistonda O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning ayrim jihatlari haqida. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,2(Special Issue 23), 154-159 4. www.lex.uz 5. www.wikipedia.com.